



Aholining umumiy daromadlari

(2020-yilning yanvar-mart oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart holatiga ko'ra aholining umumiy daromadlari 78,9 trln. so'mni tashkil etdi.

Aholining umumiy daromadlari nominal o'sish sur'ati 122,5 % ni tashkil etdi.



122,5 %


120,1 %



Aholi jon boshiga umumiy daromadlari 2,3 mln. so'mni, nominal o'sish sur'ati esa 120,1 % ni tashkil etdi.



107,6 %



Aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati

Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri - iste'mol narxlar indeksidan (INI) foydalaniladi.

Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-mart holatiga ko'ra aholi jon boshiga real o'sish sur'ati esa 105,6 % ni tashkil etdi.

105,6 %




Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati



Aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlari bo'yicha Toshkent shahrida (5824,1 ming so'm) hamda Navoiy (3693,7 ming so'm), Buxoro (2622,2 ming so'm) va Toshkent (2531,3 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi.




2020-yilning yanvar-mart holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari hajmi, ming so'm




Aholi jon boshiga daromadlarning eng quyi ko'rsatkichlari esa Namangan (1674,5 ming s'om), Farg'ona (1756,4 ming so'm) va Qashqadaryo (1758,8 ming so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Navoiy (11,1 %) viloyati hisobiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Jizzax (7,4 %), Surxondaryo (7,1 %) Namangan (7,0 %) Samarqand (6,2 %), Fargona (5,8 %) hamda Xorazm (5,7 %) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromad ko'rsatkichlarining real o'sishi respublika darajasidan yuqorini tashkil etgan.

2020-yilning yanvar-mart holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'atlari, % da



Aholining umumiy daromadlari tarkibi




Aholining umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 66,0 % ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) va 25,3 % ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.

- Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar
- Transfertlardan olingan daromadlar
- Mol-mulkdan olingan daromadlar
- Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar

Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy (81,2 %) viloyatida kuzatildi. Aksincha, Toshkent shahri, Samarqand, Namangan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo, Andijon hamda Qashqadaryo viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi (hudud aholi umumiy daromadlariga nisbatan, % da)



- mehnat faoliyatidan olingan daromadlar
- shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlar
- transfertlardan olingan daromadlar

Shuningdek, Samarqand, Andijon va Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida transfertlardan olingan daromadlar aholining umumiy daromadlariga nisbatan 30 % dan yuqori ulushni tashkil etdi.



Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

Aholining umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) sezilarli ulushni tashkil etadi.




2020-yilning yanvar-mart oylari ma'lumotlariga ko'ra mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi 66,0 % ni tashkil etdi.


Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan 123,1 % ni tashkil etdi hamda aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 15,2 % ga o'sishini ta'minladi.



Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar yollanma ishchilarning daromadlari hamda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromatlardan tashkil topadi.




Yollanma ishchilarning daromadlari:




2020-yilning yanvar-mart oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari 33,4 % ni tashkil qildi. Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati 125,6 % ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 8,3 % o'sishini ta'minladi.

125,6 %



2020-yilning yanvar-mart holatiga ko'ra hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sish sur'ati Toshkent shahrida (135,0 %), Navoiy (131,5 %) va Surxondaryo (126,8 %) viloyatlarida qayd etildi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar

32,6 %



Aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi




120,7 %



2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan nominal o'sish sur'ati

Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi, % da




Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi turlicha va 13,3 % dan (Toshkent shahrida) 48,5 % gacha (Jizzax viloyatida) o'zgarib turadi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar


Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o'sishi umumiy daromadlar hajmining 0,33 % ga o'sishiga olib keladi.

Hududlar bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar

1 % ga o'sganda aholining umumiy daromadlari hajmi o'sishiga ta'siri, % da



Jami mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarda hududlarning ulushi



Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Samarqand (11,8 %), Toshkent (11,6 %) va Farg'ona (8,9 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Kamroq ulushga ega bo'lgan hududlar Sirdaryo viloyati (2,5 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,4 %) hamda Navoiy (4,9 %) viloyati hisoblanadi.



Mol-mulkdan olingan daromadlar

Mol-mulkdan olingan daromadlarning umumiy hajmi

4,8 trln. so'm




2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati

137,9 %




Aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi

6,0 %



Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibi, % da



- Foizlar
- Dividendlar
- Boshqa mulkiy daromadlar


Aholi umumiy daromadlari hajmining o'zgarishiga mol-mulkdan olingan daromadlarning ta'siri juda kam. Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining 2,0 % ga o'sishini ta'minladi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi ulushi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 71,7 % ni tashkil etdi. Toshkent (6,2 %), Samarqand (4,1 %), va Namangan (3,8 %) viloyatlari keyingi yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar hisoblanadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi, % da



Mol-mulkdan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da



2020-yilning yanvar-mart oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra o'tgan yilning mos davriga nisbatan mol-mulkdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 137,9 % ni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati Toshkent shahrida (145,9 %) qayd etildi.



Transfertlardan olingan daromadlar


Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 1,0 % punktga kamaydi va 25,3 % ni tashkil etdi.

Transfertlardan olingan daromadlar ijtimoiy transfertlardan (pensiylar, nafaqalar, stipendiyalar) va boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlardan tashkil topadi.


2020-yilning yanvar-mart oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning 48,4 % ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, 51,6 % ni boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

O'tgan davr mobaynida pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlarining 2,6 % ga o'sish imkonini berdi.


Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi, % da



Ijtimoiy transfertlar tarkibi, % da



Ijtimoiy transfertlarning turlari bo'yicha o'sish sur'ati, % da




Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko'p ulushni - 82,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar 15,4 % ni, stipendiyalar 2,4 % ni tashkil etdi.

2019-yilning mos davri ma'lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o'sish sur'ati 120,3 % ni, nafaqalarning o'sish sur'ati 139,9 % ni tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-mart oylarida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida jami 1,5 trln. so'm miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan 56,2 % i budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va 43,8 % respublika va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan.

Hududlar bo'yicha ijtimoiy nafaqalarning shakllanish manbalari, % da



Boshqa joriy transfertlar


2020-yilning yanvar-mart oylari bo'yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining nominal o'sish sur'ati 115,6 % ni tashkil etdi. Aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7 % punktga tushib, 13,1 % ni tashkil etdi. Ushbu daromadlarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlari nominal qiymatining 2,2 % ga o'sishini ta'minlab berdi.



2020-yilda aholining umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalarining eng yuqori ulushi Samarqand viloyatida (19,8 %) kuzatildi.


Shuningdek, Andijon (18,7 %), Surxondaryo (18,0 %), Xorazm (17,9 %), Namangan (15,7 %), Qashqadaryo (14,9 %), Buxoro (14,7 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (14,4 %) va Farg'ona viloyatida (13,7%) respublika darajasidan yuqori ulushni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi, % da






Aholining umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar



2020-yilning yanvar-mart oylarining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra aholining umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 53,6 % ni, boshqa daromadlar 46,4 % ni tashkil etdi. Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning hududiy aholi umumiy daromadlaridagi ulushi turlicha: eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (62,0 %) kuzatildi.

Hududlar bo'yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi, % da



Eng kam ulush esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (43,5 %) va Navoiy viloyatida (44,2 %) qayd etildi.

Davlat statistika qo'mitasi
 Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari
 statistikasi boshqarmasi
 Nashr uchun mas'ul: J.Yuldashev
 Aloqa telefoni: (71) 230-81-66